XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RLARIDA QO'LLANGAN ANAFORALAR USLUBIY VAZIFASI

Xurinisa Xudoyberdiyeva
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: xudoyberdiyevaxurininsa@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23218223

Annotatsiya: maqolada Xosiyat Rustamova she'riyatida qo'llangan anaforalar, ularning turlari va lingvostilistik vazifalari tadqiq etilgan. Shoira ijodida anaforik takrorlarning misralarga ohangdorlik baxsh etish, fikrni ta'kidlash, emotsionallik hamda ekspressivlikni kuchaytirishdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Anafora, lingvostilistika, poetik takror, sintaktik parallelizm, simploka, epifora.

Annotation: The article explores the anaphoras used in the poetry of Khosiyat Rustamova, their types, and linguostylistic functions. It highlights the role of anaphoric repetitions in imparting rhythm to verses, emphasizing thoughts, and enhancing emotionality and expressiveness in the poet's work.

Keywords: Anaphora, linguostylistics, poetic repetition, syntactic parallelism, symploke, epiphora.

Аннотация: В статье исследованы анафоры, использованные в поэзии Хосият Рустамовой, их виды и лингвостилистические функции. Раскрыта роль анафорических повторов в приложении стихам мелодичности, подчеркивании мыслей, усилении эмоциональности и выразительности в творчестве поэтессы.

Ключевые слова: Анафора, лингвостилистика, поэтический повтор, синтаксический параллелизм, симплока, эпифора.

Badiiy matnning emotsional-ekspressiv ta'sir quvvatini oshirishda leksik va sintaktik takrorlarning o'rni beqiyosdir. Zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos ovozi, teran falsafiy mushohadalari bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri Xosiyat Rustamovadir. Shoira she'riyatida qo'llanilgan poetik takrorlar misralardagi joylashish o'rni va tuzilishiga ko'ra turlicha namoyon bo'lib, matnning estetik qimmatini oshiradi.

Poetik sintaksisning eng faol va ta'sirchan shakllaridan biri bo'lgan anafora (bosh takror) Xosiyat Rustamova she'riyatida lirik qahramonning ichki isyoni, shubhasi, falsafiy qarashlari hamda emotsional kechinmalarini ochib berishda yetakchi vazifa bajaradi.

Anafora uslubiy vosita sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.She'rga ohangdorlik, jozibadorlik baxsh etadi:

Men yashab ko'rmagan boshqacha dunyo,
Men yashab ko'rmagan bexavotir kun.
["Shamollar bemalol o'tar yonimdan" Bebosh bulutlar 180-b]

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

"Men yashab ko'rmagan" iborasining takrorlanishi anaforik takrorni yuzaga keltiradi va lirik qahramonning e'tirozini, ichki isyoni ifodalaydi. Har ikki misra parallel tuzilgan bo'lib, bu matnga ritmik uyg'unlik kayfiyatini bag'ishlaydi. Ushbu ibora stilistik jihatdan she'rda lirik qahramonning o'zini notanish va begonadek his qilayotgan hayotga munosabatini kuchli ifoda qilish, hissiy urg'uni kuchaytirish, she'rga katarsis olib kirish vazifasini bajargan.

2. Fikrni ta'kidlashga xizmat qiladi:

Hech qachon kishanga bitmaydi zabon,
Hech qachon odamga aylanmaydi it,

["Do'stim bo'lasanmi…" Devor 32-b]

"Hech qachon…" birikmasi takrori anaforani yuzaga keltiradi va u uslubiy jihatdan aniq va qat'iy rad etish, haqiqatni tantanali tarzda bayon qilish vazifasini bajaradi. "Hech qachon kishanga bitmaydi zabon" misrasida "zabon" (til, nutq, fikr) – erkinlik, tafakkur, so'zlashish huquqi ramzi. "Kishan" esa zo'ravonlik, qamov, erksizlik timsoli. "Hech qachon odamga aylanmaydi it" satrida "it" obrazida, xiyonatkor, pastkash, sadoqatsiz yoki insoniylikdan yiroq kimsalar nazarda tutilgan. "Odamga aylanish" – insoniy qadriyatlar, axloqiy yuksaklik timsoli. She'riy parchada tabiat o'zgaruvchan emas – kim aslida nima bo'lsa, shundayligicha qoladi degan ma'no yashiringan.

3. Fikrni bo'rttirishga, uni kuchli emotsiya bilan yuzaga chiqishiga xizmat qiladi:

Bir qarasang – qizdiradi kun,
Yomg'ir yog'ar bir kun bearmon,
Unga hech kim qilmaydi hukm,
Unga hech kim chiqarmas farmon.

["Osmon" Devor 108-b]

"Unga hech kim..." iborasi ikki marta takrorlangan bo'lib, uslubiy jihatdan ma'noni kuchaytirish hamda g'oyaviy markazni ajratishga xizmat qiladi. She'rda kun obraziga tabiat hodisalari – quyoshli va yomg'irli holatlar bilan yondashilgan. "Kun" inson irodasiga bo'ysunmaydigan, o'zgarmas, mustaqil kuch sifatida tasvirlangan. She'rda antiteza ("Qizdiradi kun" ↔ "Yomg'ir yog'ar".), takror kabi stilistik vositalar qo'llangan. She'r tabiat kuchlarining mustaqilligi va inson ojizligi haqidagi falsafiy fikrni ifodalaydi. "Kun" – taqdir, vaqt, hayot timsoli sifatida talqin qilinadi. Unga hech kim "hukm qilmaydi", ya'ni inson u ustidan qaror qabul qila olmaydi. Bu she'rda takrorlar – g'oyaning chuqurligini ochish uchun ishlatilgan, anafora – stilistik urg'u va tuzilma uyg'unligini ta'minlaydi, sintaktik parallelizm – kompozitsion mustahkamlik beradi, fonetik uyg'unlik – ritm va emotsiyani oshiradi.

Shoira so'zlarni uslubiy qo'llash orqali o'z ruhiy olamida aks etgan fikrlariga suhbatdoshining ham nigohlarini qaratishga urinadi va buni uddalaydi. Uning she'riyatidagi takroriy so'z yoki birikmalar misralardagi joylashish o'rni yoki tarkibiga ko'ra erkin va qat'iy tizimli takrorlarga ajratiladi:

1.Erkin badiiy takror:

Yopiq eshiklarning,
Ortida kim bor,
Mudom kimdir ketar,
Kimdir keladi.

["Yopiq eshiklarning…" Devor 24-b]

Keltirilgan she'riy parchada "kim" so'roq olmoshi erkin takrordir. Bu to'rtlikda hayot va vaqt oqimi, insonning abadiy kelishi va ketishini tasvirlaydi. "Yopiq eshik" orqasida nima bor – bu falsafiy savol, har kim uchun turlicha talqinga ega bo'ladi: taqdirmi, o'limmi, ilohiy sirmi – bu noaniqlik she'rning badiiy

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kuchini oshiradi. "Yopiq eshiklar" – metaforik obraz bo'lib, noma'lumlik, sir, yashirinlik, hayotning ko'rinmaydigan jihatlari, ehtimol taqdir yoki o'lim hayot oralig'idagi chegarani anglatadi. "Kimdir ketar, kimdir keladi" – hayotiy aylanish, vaqt oqimi, odamlar oqimi ramzi. Bu satrlar abadiy harakat, odamlar hayotga keladi va ketadi degan falsafiy fikrni ifodalaydi. She'rda ohangdorlik, sokinlik va ma'yuslik seziladi. Har bir satrda tovush uyg'unligi (masalan, "k" va "d" tovushlari) bor, bu esa ichki musiqiylikni yuzaga keltiradi.

2.Qat'iy tizimli takror:

Kim burgutu, kim laylak,
Kim chumoli kim quzg'un.

["Kuz"]

"Kim..." – bu anafora va sintaktik parallelizm vositasi. Bu takrorlar she'rga ichki ritm va taqqosiy tartib bag'ishlaydi. Misrada har bir "kim" savoli aslida insonning o'ziga berayotgan savoli, ya'ni "men qaysiman?", "insonlar aslida qanday?" – bu ekzistensial tahlil. She'rda qushlar va hasharotlar orqali insonlar obrazlari metafora shaklida ifodalangan:Burgut – erkinlik, kuch, jasorat, hukmronlik ramzi, laylak – mujdachi, tinchlik timsoli, ba'zan befarqlik ramzi, chumoli – mehnatkashlik, tirishqoqlik, jamoaviylik ramzi, quzg'un – yovuzlik, fojea izlovchi, o'lim bilan bog'liq obraz. Bu obrazlarning har bir inson fe'l-atvori, ijtimoiy roli yoki maqsadi timsolidir. Ushbu she'rda tabiatdagi har bir jonivorning fe'l-atvori insoniy xarakterlarga o'xshatilgan. Shoira bu misrada jamiyatni turfa fe'l-atvorli insonlardan tashkil topganini ifodalaydi, insoniy tabiat xilma-xilligini badiiy shaklda tasvirlaydi. Bu ikki satrli misra qisqaligi bilan teran falsafiy ma'no beradi; poetik takror va metaforalar orqali jamiyat ichidagi xarakterlar turlicha ekanini ochib beriladi; har bir obraz ortida insoniy fazilat yoki kamchiliklar turadi; o'quvchini o'zini tahlil qilishga undaydi: "men kimman – burgutmi, chumolimi, quzg'unmi?"

Biz yuqorida shoira she'rlarida takrorning turli xil ko'rinishlari qo'llanganligini guvohi bo'ldik. Shulardan yana biri – uchma-uch ulash yoki simploka deb yuritiladigan takror bo'lib, shoira she'riyatida tez-tez kuzatiladi.

Xosiyat Rustamova she'rlarida qo'llangan simplokalarni ikki guruhga ajratgan holda lingvostilistik jihatdan tahlil qilamiz.

1.Misrani bir-biriga ulash:

Shox-shabbalar bu axir,
Axir bu qanday kurash,
["Shamol" Devor 12-b]

"Axir" so'zi har ikkala satrda ham ishlatilgan, ammo birinchi satr oxirida, ikkinchi satr boshida qo'llangan. Bu shakl epifora va anaforaning kombinatsiyasi, ya'ni simplokani hosil qiladi. Bu takror ma'noga urg'u berish, hayrat, iztirob yoki norozilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. "Axir" so'zi bu yerda emotsional yuklama bilan kelib, mantiqiy ajablanish yoki norozilikni bildiradi. "Shox-shabbalar" – tabiatga oid obraz bo'lib, bu yerda quruq tashqi harakatlar, ma'nosiz urinishlar timsoli sifatida ishlatilgan, ammo undan keyin kelgan "bu qanday kurash?" savoli semantik ziddiyat hosil qiladi. Bu esa badiiy effektni kuchaytiradi. "Kurash" so'zi –hayotiy, ijtimoiy yoki ma'naviy to'qnashuvni anglatadi. Ushbu ikki misrada simploka (anafora + epifora) orqali ifoda kuchi oshirilgan; savol intonatsiyasi orqali emotsional zo'riqish paydo qilingan; Shox-shabba va kurash so'zlari o'rtasidagi semantik ziddiyat – kinoya va falsafiy fikr ifodasidir; Takror "axir" orqali muallif fikrining jiddiyligi va ishonchsizligidan g'am va tanqid seziladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Gul esa beparvo o‘sar kundan-kun,
Kundan-kun kichrayib bormoqda tuvak.
["Qaysi aql bilan ekdim bu gulni" Ishg‘ol 8-b]

She'riy parchada "Kundan-kun" leksik takrori qo‘llangan. U vaqtning izchil o‘tishi, kundalik o‘zgarishlarning ta'sirchanlik bilan berilishi bo‘lib, ritmik uyg‘unlik hosil qiladi va mazmuniy urg‘uni kuchaytiradi. Misralardagi antiteza (zid obrazlar), ya'ni gul o‘smoqda ↔ tuvak kichraymoqda. Bu qarama-qarshi harakatlar orqali hayotning ichki paradoksini ifodalaydi. Tabiiy go‘zallik (gul) o‘sadi, o‘z hayotini davom ettiradi, ammo unga berilgan joy (tuvak – ya'ni cheklov, makon) torayib bormoqda. Bu insoniy holatga tashbeh sifatida talqin qilinadi. Ichki o‘sish, intilish bor, lekin tashqi imkoniyatlar, muhit chegaralanmoqda. She'rda gul – inson, ijod, orzu, go‘zallik ramzi, tuvak – hayot makoni, jamiyat, erkinlik doirasi, beparvo o‘sar – hayotning ongli emas, o‘z holiga tashlab qo‘yilgan oqimi ramzi. "Gul – beparvo – kundan-kun" birliklari tovushlarida yumshoqlik, ohangdorlik mavjud. Bu esa tabiiylik, sekinlik, shoirona sukut bilan uyg‘unlashadi. "Kichrayib bormoqda tuvak" jumlasida "k" va "t" undoshlari kuchliroq bo‘lib, tashvish, zo‘riqish, torlik hissini uyg‘otadi.

2.Bandni bir-biriga ulash:

Qanday kechar tun borib-borib,
Daraxtlarni qopladi og'u,
Tonglar mudom borar qisqarib,
Kun yarmida tushar qorong'u,
Qanday kechar tun borib-borib!

Qanday kechar tun borib-borib,
Og'irlashar kundan-kun yurak,
Oy yuksakda mudraydi g'arib,
Ko‘kning esa parvoyi falak,
Qanday kechar tun borib-borib.
["Qanday kechar tun borib-borib..." Devor 6-b]

"Qanday kechar tun borib-borib" misrasi bob boshida va oxirida takrorlangan. Ushbu takror ritmni barqaror qiladi, hayotiy-falsafiy iztirobni doimiy eslatib turadi. She'rda antitezalardan ham unumli foydalanilgan. "Tonglar qisqarib" ↔ "tun borib-borib" – bu umidning kamayishi, qorong‘ilikning ustunligi. "Oy mudraydi" ↔ "Ko‘kning esa parvoyi falak" – osmondagi jism (oy) holdan toygan, lekin koinot beparvo. Bu she'rda shoira tungi qorong‘ilik orqali ichki tushkunlikni, jamiyatdagi iztirobni, yoki umrning og‘ir pallalarini tasvirlaydi. Takrorlar, metaforalar va kosmik obrazlar vositasida ruhiy yuksalish bilan birga og‘irlikni aks ettiradi. "Qanday kechar tun borib-borib" misrasi – nafaqat tun haqida, balki umr, kechinma, hayotdagi murakkab holatlar haqida berilgan ritorik savol sifatida gavdalantirilgan.

Xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, Xosiyat Rustamova she'riyatida anafora va uning turlari oddiy uslubiy bezak emas, balki lirik qahramonning ichki kechinmalari, falsafiy-estetik qarashlarini to‘laqonli ochib beruvchi yetakchi lingvostilistik quroldir. Anaforik takrorlar she'rlarga musiqiylik va jozibadorlik baxsh etib, muallif g‘oyasining o‘quvchi ongiga ta'sirchan yetib borishini ta'minlaydi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xosiyat Rustamova. Bebosh bulutlar: She'rlar. – Toshkent: Sharq, 2023. – B. 180.
2. Xosiyat Rustamova. Devor: She'rlar. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – B. 6, 12, 24, 32, 51, 108.
3. Xosiyat Rustamova. Ishg'ol: She'rlar. – Toshkent, 2025. – B. 8.
4. Hojiyev A. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – B. 142-145.
5. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Fan, 2016. – B. 98-102.
6. Mahmudov N. O'zbek tili stilistikasi va matn tahlili nazorati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B. 210-215.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.